



**XALQ OG'ZAKI IJODI "GO'RO'G'LINING TUG'ILISHI" DOSTONI
MISOLIDA**

G'aniyeva Mohinur Murodilovna

*O'zbekiston Milliy Universiteti Jurnalistika va O'zbek filologiyasi
fakulteti 1- kurs talabasi*

E-mail: ganiyevamohinur85@gmail.com

ANOTATSIYA: Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining yirik va badiiy jihatdan pishiq janrlaridan biri — dostonlar, xususan "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni misolida xalq epik tafakkurining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda dostonning kompozitsion qurilishi, obrazlar tizimi, qahramonlik motivlari, xalqning turmush tarzi, urf-odatlar hamda mafkuraviy qarashlari aks etgan qatlamlar yoritilgan. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonidagi epik obrazlar — Go'ro'g'li, Avaz, Ravshan kabi qahramonlar orqali xalqning ozodlikka intilishi, adolatparvarlik ruhiyati va botirlik idealari ochib beriladi. Maqolada shuningdek dostonning tarbiyaviy, ma'naviy-axloqiy ahamiyati, undagi timsollar va motivlarning o'zbek xalqining tarixiy xotirasi hamda og'zaki ijod an'analarini mustahkamlashdagi o'rni ilmiy asosda izohlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni xalq ongidagi qahramonlik arketipini mujassam etgan noyob epik yodgorlik sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Xalq og'zaki ijodi, doston, Go'ro'g'lining tug'ilishi, Qahramonlik motivi, epik obrazlar, Folklor, milliy ma'naviyat, Tarbiyaviy ahamiyat, Og'zaki ijod an'analari, Epik tafakkur

Xalq og'zaki ijodining bugungi kundagi ahamiyati

O'zbek xalqiday bir xalq, millat bor ekan, jahon xalqlari orasida tutgan o'rni, insoniyat tarixiga qo'shgan munosib hissasi, avvalo, xalq og'zaki ijodi namunalari misolida yaqqol ko'rinib turadi. Xalq og'zaki ijodi qadimdan beri og'izdan og'izga o'tib bizgacha yetib kelgan va bizdan keyin ham davom etadigan janr hisoblanadi. Bu bizning tuganmas qadriyatlarimiz ham demakdir. Og'zaki ijod mahsulotlari xalq tomonidan avloddan-avlodga og'zaki shaklda yetkazilib kelinadi. Shu jihatdan u nafaqat adabiy, balki tarixiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ham egadir. O'zbek folklori ko'p asrlar mobaynida xalq tafakkurining boyligini, yashash tarzi va orzu-umidlarini ifoda etib kelgan. Bu asar o'z ichiga ertaklar, dostonlar, afsona va rivoyatlar, maqollar, topishmoqlar va boshqa janrlarni qamrab oladi. Har bir janr o'ziga xos poetik qurilish va estetik vazifaga ega. Xalq ijodiyoti orqali xalqning ichki dunyosi, tafakkuri va qadriyatlari ifodalanadi. O'zbek folklorini yozib olish, nashr qilish, tadqiq etish ishlari o'tgan asrlardan boshlangan bo'lsa-da, xalq og'zaki ijodini chinakam, har tomonlama o'rganish, mukammal nashrlarini amalga oshirish, ularning tariximiz va bugungi kunimizdagi ahamiyatini ko'rsatish, anglab yetish bevosita mustaqillik sharofati bilan ro'y berdi. Xalq og'zaki ijodi namunalari umrboqiy saqlanib qolar ekan,





xalqimizning ma'naviy yetukligini shundan ham bilsak bo'ladi. Inson ma'naviyatini yuksaltirishda folklorning o'rni haqida gap ketar ekan, aslida bu jarayon bolaning tug'ilishidan boshlanadi. Momolarimiz, onalarimiz aytgan allalar, aytimlar, topishmoqlar, tez aytishlar, ertak va qo'shiqlar bolaning tili, dunyoqarashini shakllanishiga xizmat qiladi. M.Saidov aytganidek: "Xalq og'zaki ijodini o'rganish- xalq ruhiyatini o'rganish demakdir".⁶⁷ Shunday ekan, Xalq ijodini o'rganishda folklor asarlarining janriy xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish talab qiladi.

Dostoning mazmun-mohiyati va janr sifatidagi o'rni

Doston, ertak kabi yirik epik janrlar til taraqqiyotida qanchalik muhim o'rin tutsa, qo'shiqlar, maqol, matallar kabi eng kichik janrlar ham birdek qimmatli va ahamiyatlidir. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari orasida doston eng yirik hajmli va keng tarqalgan janr hisoblanadi. Dostonlar xalqning badiiy shakldagi taqdirnomasi, o'ziga xos qomusidir. Har bir xalqning insoniyat tarixidagi o'rni, xizmati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, madaniy mavqeini eposlari namoyon etadi. Xalqning komil inson, adolat, haqiqat, ozodlik, tenglik tushunchalari, falsafiy, diniy qarashlari va bu yo'ldagi ibratli qahramonlari, ideallari, ularning kurash yo'li dostonlar mavzusini, g'oyaviy mazmunini tashkil etadi. Ushbu mazmun va mundarija dostonlar syujeti, motivlar tizimi, badiiy tasviriy vosita va usullarida o'z ifodasini topadi. Hozirda keng omma orasida va folklorshunoslikda qo'llanib kelayotgan «doston» so'zi «qissa», «hikoya», «tarix»⁶⁸, sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarini anglatadi. Ammo atama sifatida folklordagi epik turga mansub, she'riy va nasriy parchalardan iborat, ma'lum bir qahramonlar hayoti, taqdirini tasvirlab beruvchi yirik hajmdagi, maxsus ijrochilar tomonidan kuylanuvchi asarga nisbatan qo'llaniladi. Ayni paytda doston atamasiga muqobil ravishda epos termi ham ishlatiladi. Doston atamasi yozma adabiyotda ham katta hajmdagi epik asarlarga nisbatan keng istifoda etiladi. Biroq og'zaki va yozma adabiyotdagi dostonlar hayotni tasvirlash vositalari, usullari, an'anaga munosabat va boshqa bir qator xossalarga ko'ra jiddiy farq qiladi. V.M. Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar ta'biri bilan aytganda xalq og'zaki ijodida doston o'tmish zamonlar to'g'risida qahramonlik idealizatsiyasi ko'lamidagi hikoyalar va rivoyatlardir. Professor M.Saidov ta'rificha, avvalo, og'zaki ijoddagi dostonlarda she'riy va nasriy parchalardan iborat badiiy manba – matn bo'lishi kerak. Ikkinchidan, dostonning musiqasi bo'lishi lozim. (Bu o'rinda shuni aniqlab olish kerakki, har bir alohida olingan doston uchun alohida yirik musiqa asari bo'lishi shart emas). Uchinchidan, dostonni bir kishi ijro etganligi tufayli kuylovchi do'mbira cherta bilishi yoki qo'biz chala bilishi zarur. To'rtinchidan, dostonni kuylayotgan baxshi yaxshi ovozga ega bo'lishi va qo'shiq aytish mahoratini

⁶⁷ M. Saidov. O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat. Nashriyot: "Fan", 1969 yil.

⁶⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. -T:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -B.649.



egallagan bo'lishi zarur.⁶⁹ Bu shartlarga mos keluvchi asarlarning soni juda ko'p. Bunday dostonlar sirasiga “Alpomish”, “Ravshan”, “Rustamxon”, „Oshiq G'arib va Shohsanam”, “Xirmon Dali” va “Go'ro'g'li” kabi xalq og'zaki ijodining eng sara namunalari hisoblanadi.

“Go'ro'g'li” dostoning kelib chiqishi, va bugungi kundagi tutgan o'rni

Bu dostonlarning ichida “Go'ro'g'li” dostoni o'zining g'ayritabiiyligi bilan alohida ajralib turadi. Dostonga to'xtalar ekanmiz, avvalo, dostoning sarlavhasi odamni o'ziga jalb qiladi. Go'ro'g'li deb go'rda ya'ni qabrda tug'ilgan bolaga nisbatan aytilgan. O'zbek xalqi epik ijodida Go'ro'g'li va uning asrandi o'g'illari, safdoshlari hayotidan hikoya etuvchi dostonlar majmuasi alohida o'rin tutadi. «Go'ro'g'li» turkumiga kiruvchi dostonlarda Go'ro'g'lining tug'ilishi, bolaligi, uylanishi, Avazxon va Hasanxonlarni asrab olishi, Avazxon, Hasanxon, ularning o'g'illari – Ravshan, Nurali, Sherali, keyingi avlod – Jahongirlarning hayotidan tortib, bosh qahramonning bir yuz yigirma yoshida g'orga kirib g'oyib bo'lib ketgungacha bo'lgan voqealar aks etadi. «Go'ro'g'li» turkumiga kiruvchi har bir doston o'zicha mustaqil xarakterga ega va ularning har biri el orasida alohida-alohida kuylanib kelingan. «Go'ro'g'li» turkumi tarkibi g'oyatda murakkab, kuylanish va ijro sharoitlarida o'zaro mustaqil va har biri alohida yagona syujetga ega bo'lgan. bu silsila dostonlar Go'ro'g'li va G'irot obrazlari, Chambil mamlakati kabi asosiy nuqtalarda, shuningdek, qirq yigit, Soqibulbul, Hasanxon, Ahmad sardor singari an'anaviy obrazlar, ularning g'ayriqutblari tasviri orqali bir-birlari bilan birlashsalar-da, bosh qahramonning muntazam epik biografiyasi emas, balki uning dovuqli afsonaviy hayotining ko'pdan-ko'p epizodlari tasvirlaridan iborat. «Go'ro'g'li» dostonlari o'tgan asrning boshlaridan turli yillarda, turli baxshilar tomonidan yozib olingan.

“Go'ro'g'li” dostoning mazmuni va tahlili

Go'ro'g'lining tug'ilishidagi g'ayritabiiylik, uning ilk bolaligi, o'spirinlik davridagi “noodatiy” qiliqlari ana shu o'ziga xosliklar bilan izohlanadi. Ilk asotir va afsonalarning ta'siri, qadimgi tasavvur va e'tiqodlarning ba'zan yorqin, ba'zan xira qoldiqlari tasvirlari zaminidagi ma'nolarni tushunish qiyinroq tuyulishi mumkin. Dostonda ko'plab badiiy timsollar yaratilgan. Xalq boshliqlari, oddiy fuqarolar, ko'plab yigitlar, qiz va ayollarning takrorlanmas siymolari zo'r badiiyat bilan ko'rsatib berilgan. Doston voqealari Zargar yurtining podshosi Shohdorxonning Yovmit yurtiga bosqinchilik urushi qilishi bilan rivojlanib boradi. Bu yerda ikki davlat podsholarining, ya'ni Go'ro'g'lining bobosi Odilxon podsho bilan Shohdorxonning o'ziga xos bo'lgan xislatlari yoritiladi. Odilxon podshoning insoniy fazilatlariga qarama-qarshi o'laroq, Shohdorxonning nuqsonlari ko'zga tashlanadi. Shohdorxonning maslahatga quloq solmay, o'ylamay qaror qabul qilishi, uzoqni ko'ra bilmasligi ko'plab insonlarning bevaqt o'limiga, taqdirlarining o'zgarib ketishiga sabab bo'ladi. Chunki mana shu urush tufayli Go'ro'g'lining ota-onasi – Ravshan va Bibi Hilol ham bolaligida Zargar eliga borib qolib, musofirchilikda voyaga yetadi. Dostonda qahramonning tug'ilishi va yoshligidanoq bahodirlik kuchini namoyish qilishi ancha keng tasvirlangan.

⁶⁹ Saidov M.Doston/MuhammadnodirSaidov-ma'rifat fidoyisi.-T. MUMTOZ





Go'ro'g'lining tug'ilishi va xalq manfaati yo'lida qahramonlik ko'rsatishida chiltanlar va Xizr alayhissalom katta o'rin tutadi. Bular xalq dostonlarining doimiy ishtirokchilari bo'lib, ular xalq qahramonlariga homiylik, rahnamolik qiladi. Ular hali hayot tajribasiga ega bo'lmagan qahramonga yo'l-yo'riqlar ko'rsatish bilan uni tarbiyalab boradi va qahramonni elga xizmat qilishga o'rgatadi. Mantiqiy fikrlaganda g'ayritabiiy bir sharoitda tug'ilgan go'dakni kimdir o'limdan saqlab qolmog'i kerak. Go'ro'g'li go'rda tug'ilgan ekan, Bibi Hilolning jonsiz murdasi uni tarbiyalay olmas edi. Shu o'rinda go'dakni yo'rgaklab olish uchun Xizr alayhissalom va chiltanlar hozir bo'ladilar. Go'ro'g'lining g'ayritabiiy tug'ilishi – uning kelajakda boshqalarga o'xshamaydigan, favqulodda kuch-qudrat, aql-idrok egasi bo'lib kamol topishiga ishora. Tengdoshlariga nisbatan sho'xliklari, o'zidan kattalarga ham tegajoqlik va zo'ravonlik qilishi esa undagi alplik alomatlarining badiiy tasviridir. Parokanda bo'layozgan Taka-Yovmit elida Go'ro'g'lining kelishi bilan tub burilishlar sodir bo'ldi. Eng muhimi, u el-yurt sha'nini, shavkatini, or-nomusini tiklaydi. Go'ro'g'lida yigitlik burchi va mas'uliyatini his etish juda kuchli darajada shakllangan. Ayni mana shu tuyg'u uni harakatga soladi, kuchiga kuch ba g'ishlaydi. Doston voqealari rivojida Rayhon arab obrazining ham o'ziga xos o'rni bor. U Shirvon yurtining podshosi bo'lib, Iroq va Arabiston mamlakatlari unga qarar edi. Rayhon arab – Rustam kelbatli, pahlavon, qo'rqmas va jasur, o'ziga ishongan podshoh. Uning mingan oti chin tulpor bo'lib, uni quvib yetib bo'lmas edi. Buni Go'ro'g'lining Rayhon arabga qarata aytgan quyidagi so'rovidan ham anglash mumkin: Ostingda o'ynaydi chin tulpor oting, Rustamga o'xshaydi shon-u shavkating, qayerda, mehmonjon, sening elating, Ajdaho nishonim, qaydin bo'larsan? Rayhon arab Xoljuvonning suluvligini eshitib, kelib ko'rgan va unga oshiq bo'lib qolgan edi. Xoljuvonga sovchi qo'yganda, Ahmadbek ham sovchi qo'yib o'zi olgan edi. Rayhon arab Xoljuvonga yetisha olmasa-da, har yili Ahmadbekning yo'qligini poylab, pana yerlardan turib uni ko'rib ketar, ko'rmasa kasal bo'lib qolar edi. U doim Xoljuvonni olib qochish payida bo'lgan. Kunlarning birida Rayhon arab Ahmadbekning bir shaharga safar qilganini eshitadi va paytdan foydalanib Xoljuvonni olib qochish uchun Turkman yurtiga keladi. Shunda u Go'ro'g'lga duch keladi va o'z rejasini undan foydalanib amalga oshiradi. Rayhon arabning Xoljuvonni olib qochishida o'zini aybdor bilgan Go'ro'g'li qanday qilib bo'lmasin undan qasdini olishni maqsad qiladi va bunga erishadi. Xoljuvon chechasining o'rniga Rayhon arabning qizi Zaydinoyini tog'asi Ahmadbekka olib kelib beradi. Mana shu voqealar jarayonida Go'ro'g'li va Rayhon arabning o'ziga xos insoniy his-tuyg'ulari, mard va jasurliklari yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. “Go'ro'g'li” nomining talqinlarida turli yondashuvlar mavjud. Jumladan, uning “go'r” – qabrda tug'ilishi motivini asoslaydigan qarashlar ham ustuvorlik kasb etgan. Ayni payt-da, uning “ko'r ota ning farzandi” ekanligiga urg'u beradigan yo'nalish ham mavjud. Jumladan, Po'ltan shoir variantida mana shu ikkala qarashning ham ta'siri ochiq seziladi. Nomning o'zak qismi ko'plab talqin larga imkon beradi. Zero, “go'r” va “ko'r” dan tashqari “kur” o'zagi ham mana shunday rang-barangliklardan birini tashkil etadi. Uning ma'nosi alp, botir, mard deganidir. Ravshanning faqat sinchi bo'libgina qolmay, anchayin kuchli bir bahodir ekani ham tasodifiy emas. Bu o'zakda «quyosh», «o't», «olov», «qo'r»,



«qir», «tog'» singari ma'nolar ham mujassamlashganki, ular qadimgi asotir va afsonalar vositasida eng qadimgi tasavvurlarni qayta tiklash imkonini beradi. Xalq dostonlarida qahramon har doim o'z oti bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Esingizda bo'lsa, Alpomishning ham oti bor edi. U Boychibor nomi bilan mashhur bo'lgan. Xuddi shuningdek, bu yerdagi G'iro't ham mana shunday jangovar otlar timsolidir.⁷⁰

“Go‘ro‘g‘li” Dostoni misolida Xalq og‘zaki ijodining badiiy va ma‘naviy ahamiyati

Xalq og‘zaki ijodi — xalqning ko‘p asrlik ruhiyati, tafakkuri, axloqiy qarashlari va tarixiy xotirasini o‘zida mujassam etgan bebaho ma‘naviy merosdir. “Go‘ro‘g‘li” dostoni esa ushbu ulkan og‘zaki merosning eng yirik, eng mukammal va eng ta’sirchan namunalaridan biri sifatida ajralib turadi. Doston turkumida xalqning hayotiy tajribasi, orzu-umidlari, mardlik va adolat haqidagi qarashlari o‘ziga xos epik shaklda ifodalangan. Hamid Olimjon aytganidek: “Go‘ro‘g‘li- o‘zbek xalqining o‘chmas qahramoni, u Robin Gud va Alpomishning o‘zbekdagi birlashgan timsolidir”. Qahramon Go‘ro‘g‘li obrazi orqali xalq o‘z botirlik ideali, vatanparvarlik ruhi, ezgulik va sadoqat haqidagi tasavvurlarini badiiy obrazlar vositasida avlodlarga yetkazgan.

“Go‘ro‘g‘li” dostoni nafaqat tarixiy voqealar aks ettirilgan epik asar, balki xalqning badiiy zehni, estetik didi, ijodiy qudrati va epik tafakkurining yuksak mahsulidir. Dostonlarda afsonaviy-mifologik qatlamlari tarixiy voqealar bilan uyg‘unlashib, xalqning dunyoqarashi yanada kompozitsion yaxlitlikda ochib beriladi. Obrazlar tizimining kengligi, syujetning sarguzashtlarga boyligi, badiiy vositalarning rang-barangligi “Go‘ro‘g‘li”ni o‘zbek eposining yuksak cho‘qqilaridan biriga aylantiradi. Shunday ekan xalq og‘zaki ijodi hech qachon o‘lmaydi. Ushbu jumlaning Abdulla Oripovning shunday bir ajoyib jumlasini bilan tugatishni maqul topdim. “Go‘ro‘g‘li-mening yuragimda yashaydi. U o‘lmagan, u faqat ot minib, ufqqa ketgan”. Shunday ekan asrlar oshsa ham xalq og‘zaki ijodi tugatilmaydi va aksincha og‘izdan-og‘izga o‘tib keying avlodga yetkaziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.M. Saidov. O‘zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat. Nashriyot: “Fan”,1969 yil.
- 2.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Birinchi jild. - T: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti,2006.-B.649.
- 3.Saidov M.Doston/Muhammadnodir Saidov-ma‘rifat fidoyisi.-T.MUMTOZ.
- 4.Xalq og‘zaki ijodi.Go‘ro‘g‘lining Tug‘ilishi. “Ilm-ziyo-zakovat”. Toshkent- 2021.

⁷⁰ Xalq og‘zaki ijodi. Go‘ro‘g‘lining Tug‘ilishi. “Ilm-ziyo-zakovat”. Toshkent-2021.

